



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



TALABALARDA TADBIRKORLIK MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI

Po'latov Abdulloh Xolxo'jayevich

Namangan davlat texnika universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba yoshlarda tadbirkorlik ko'nikma va malakalarini rivojlanirish mohiyati, unda ta'lif sohasida faol ta'lif, faol usul va shakllardan foydalanishni mazmuni yoritilgan. Talabalar o'rtasida tadbirkorlik malakalarini rivojlanirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati tadbirkorlikda cheklangan kapitaldan oqilona samarali foydalanish orqali erishliishi, axborot texnologiyalari yordamida bir qator malakalarni rivojlanirish mumkinligi ta'kidlangan. Talabalarda tadbirkorlik malakalarini rivojlanirish amaliy ahamiyatga molikligi, o'ziga xos bo'lgan yondashuvni talab etishi bayon etilgan. Shuningdek, tadbirkorlik malakalari rivojlanirish shakllari ko'rsatib o'tilib, soha bo'yicha tegishli xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, iqtisodiyot, yoshlar tadbirkorligi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimi, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik malakalarini rivojlanirish shakllari, tajriba, amaliyatda o'rghanish, munozaralar, debatlar, dialoglar, suhbatlar

Kirish. Pedagogik jarayonda ta'lif darajasiga qo'yiladigan talablarning doimiy o'sib borishi, o'quv jarayonlari samaradorligini oshirish uchun o'qitish metod va vositalarini izlab topish o'quv jarayoniga sifat jihatdan ahamiyat berib, bo'lajak bitiruvchini o'qitishning amaliy yo'nalishini ahamiyatini oshiradi. Kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ta'lifni qurish amaliy mashg'ulotlarning ulushi va faol va interaktiv o'qitish usullarining rolini oshirishga olib keldi. Bu nafaqat ko'nikmalar hosil qilish va harakatlar orqali tajriba orttirishga yordam beradi, balki nazariy ta'lif natijasida olingan bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lif va iqtisodiyot sohasida keskin o'zgarishlar amalga oshirildi. Hukumatimiz tomonidan yoshlar tadbirkorligiga, yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlanirishga katta e'tibor qaratilib, ko'plab me'yoriy hujjalarni qabul qilinmoqda. Ularda quyidagilarga urg'u berilgan: yoshlarga amaliy qo'llanma sifatida foydalanish uchun biznes yuritish va unda muvaffaqiyatga erishish yo'llari, tadbirkorlik faoliyati davomida yaxshi natijalarga erishish yo'lidagi yutuq va xavf-xatarlar haqida ommabop kitoblarni nashr etishni tashkil qilish; iqtidorli yoshlarning ilmiy g'oyalarini rag'batlantirish, ularning xorijiy universitetlar va ilmiy markazlarga qisqa muddatli stajirovkalarini tashkil etish; yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish; yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlanirish va shu kabilar. Bu





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



belgilangan chora-tadbirlar bevosita ta’lim sohasiga murojaat qilishni taqazo etadi.

Asosiy qism. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, faol ta’lim shakllarida bilimlarni o‘zlashtirish, talabaning axborotni qabul qilish va eslab qolishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yo‘nalishni tanlaydigan bo‘lajak talaba birinchi navbatda, mehnat bozori talablariga e’tibor qaratadi, jumladan – malaka va amaliy tajriba; fikrlash ijodkorligi; jamoada ishlash qobiliyati; yetakchilik sifati; boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyati; harakatchanlik va xokazolarga.

Ta’lim sohasida qonun⁷³da ko‘rsatilishiicha, Davlat ta’lim standartlarida ma’ruza va amaliy (ceminar) mashg‘ulotlarini nicbati o‘zgarishi, birinchi navbatda, quyidagi omillar ta’ciri bilan bog‘liq deyiladi:

- talaba ta’limni tugatgan vaqtida, turli fanlarni o‘rganish natijasida umumiy umummadaniy va kasbiy malakalar shakllangan bo‘lishi lozim;

- oliy ma’lumotli yosh mutaxacciclar ishlab chiqarish jarayonida ishlay olish malakasini egallagan bo‘lishi kerak, bunga asosan universitetda ta’lim olish jarayonida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish orqali erishiladi, chunki talabalarning kasb malakalari amaliy mashg‘ulotlarning katta ulushi tufayli ortadi. Ta’lim jarayonini kompetentlikka asoslangan yondashuvga o‘zgarishi samarali innovatsion texnologiyalar va uni amalga oshirish usullarini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu bilan birga ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda faol va interfaol o‘qitish usullari ham asosiy rol o‘ynaydi. Shundan kelib chiqib, talabalarda tadbirkorlik malakalarini rivojlantirish masalasi faol ta’lim jarayonidagi yondashuvni talab qiladi.

Faol ta’lim - fikrlashni majburiy faollashtirish xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatning mohiyati shundaki, talaba xohlaydimi-yo‘qmi, bundan qat’iy nazar faol bo‘lishga majbur. Talabaning yetarlicha uzoq vaqt faol faoliyat yuritishi lozimdir. Demak, faoliyat qisqa muddatli emas, balki o‘quv jarayonida talaba ishining doimiy holatidir. Nostandart vazifalarni hal etishda talabalarning ijodiy mustaqilligi, motivatsiya va emotsiyonallikning ortib borishi, interfaol texnologiyalar rejimida bevosita va qaytar aloqa yordamida o‘qituvchi va o‘quvchilarning doimiy o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi⁷⁴.

O‘quv piramidacida berilgan o‘zlashtirishning foizlari interaktiv usullardan foydalanishning samaradorligini va shuning uchun bu usullardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Faol o‘qitish metodlarining eng zamonaviy shakli interfaol o‘qitish metodlaridir. Interfaol ta’lim - bu dialog ta’lim bo‘lib, unda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro

⁷³Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ти Конуни. 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон.
<https://lex.uz/docs/5013007>

⁷⁴Соболев В.Ю., Киселева О.В., Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского. Интерактивные методы обучения как основа формирования компетенций. От замысла к практике. <https://cyberleninka.ru/article/>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



munosabatlari amalga oshiriladi⁷⁵. Ta’lim jarayoni shunday tashkil qilinadiki, deyarli barcha o‘quvchilar bilish jarayonida ishtirok etadilar, ular bilgan va o‘ylagan narcalarini tushunish va akc ettirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bakalavriat va magistratura davlat ta’lim standartlariga muvofiq, ta’lim jarayonida talabalar kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida kompetentli yondashish uchun auditoriyadan tashqari ishlar bilan birga ta’limning faol va interaktiv shakllari(ish va rolli o‘yinlar, muayyan vaziyatlar tahlil, psixologik va boshqa treninglar)dan keng foydalanishlari lozim. Interfaol shakllarda o‘tkaziladigan darslarning o‘ziga xosligi o‘quv dacturining asosiy maqsadi, talabalar kontingentining o‘ziga xosligi va aniq fanlar mazmuni bilan belgilanadi. O‘z navbatida interfaol shakllarda olib boriladigan darslarning ulushi aniq fanlar mazmuni va o‘qitishda interfaol metodlarning roli oshib borishi bilan belgilanadi. Chunki bu o‘quv darajasida mustaqil tahliliy ishlar malakasiga va kasbiy faoliyatining kasbiy yo‘naltirilganligining amaliy jihatlariga ko‘proq e’tibor beriladi⁷⁶.

Oliy ta’lim muassasasida o‘qish jarayonida, avvalo, an’anaviy usullar bilan birgalikda interfaol o‘qitish usullarini bilish va bir vaqtda yoki ketma-ket qo‘llash, materialni o‘zlashtirishning yuqori natijasiga erishish imkonini beradi. Bu holatda eng qiziqarli innovatsion usullar bo‘lib, ular o‘qitish usullarining quyidagi mezonlariga javob beradi. Bular:

- pedagogik ijod natijasi sifatidagi yangi texnologiyalar (5 yildan 10 yilgacha bo‘lgan davrda);
- universitetga xorijiy amaliyot yoki ijtimoiy va kasbiy faoliyatning boshqa sohalaridan moslashtirilgan texnologiyalar;
- yangi sharoitlarda qo‘llaniladigan ma’lum bo‘lgan ta’lim texnologiyalar, kasbiy kompetentsiyalarni o‘zlashtirishda eng samarali o‘qitish usullarini tanlash;
- talaba yoshlarni ilm-fanga va muayyan kasbga nisbatan qiziqishini shakllantirish va oshirish;
- ijodiy (kreativ) fikrlashni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish;
- talabaga berilgan iqtisodiy bilimlarni mustahkamlash hamda chuqurlashtirish, shu bilan bir qatorda talabalar malakasini shakllantirish va rivojlantirish;
- hamkasblar bilan hamkorlik qilish uchun sharoit yaratish kabilar⁷⁷.

Shu bilan birga, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda talabalarning bilim darajasini hisobga olish qiyin, chunki o‘qituvchi, qoida tariqasida, barcha talabalarni nazariy materiallarni bilish uchun intervyu olish, shuningdek, malakalarning tarkibiy qismlarini shakllantirish imkoniga ega emas. An’anaviy darslarning ma’ruza hamda amaliy mashg‘ulotlarning kasbiy malakalarni rivojlantirishdagi rolini hisobga olgan holda, ta’lim

⁷⁵Рузиева Д., Усмонбоева М., Холикова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Методик кўлланма. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. 5-б.

⁷⁶ Эргашева Ф.И. Талабаларда тадбиркорлик малакаларини ривожлантаришнинг педагогик механизмлари. Монография. – Наманган.: “Usmon Nosir media”, 2022. – 142 б.

⁷⁷ Ergasheva, F. I. (2021). Theoretical foundations of problems and solutions for the development of entrepreneurial skills among students. *current research journal of pedagogics*, 2(12), 55-60.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



jarayonini interfaol usullar bilan to‘ldirish lozim. Shuningdek, faol o‘qitish metodlarining tizimli namoyon bo‘lishi ularni yanada oqilona qo‘llash imkonini yaratadi⁷⁸.

Talabalar o‘rtasida tadbirkorlik malakalarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati tadbirkorlikda cheklangan kapitaldan oqilona samarali foydalanishda yotadi. Axborot texnologiyalari yordamida quyidagi malakalarni rivojlantirish mumkin:

- hujjatlashtirish va biznes-jarayonlar natijalarini raqamlashtirish malakasi (bunda shu bilan birga kerakli ma’lumotlarni qidirishda va ortiqcha xarajatlardan ochiladi);

- mijozlar bilan ishslashda onlayn uchrashuvlarni masofadan tashkil etish malakalari (ushbu jarayonda vaqt tejaladi va hisob-fakturada qulaylik yaratiladi va mijozlar o‘rtasida to‘lovlar masofadan turib amalga oshiriladi);

- ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni internet orqali namoyish etish va sotishni tashkil etish malakasi (shu bilan birga, kompaniyaning mahsulotlari va xizmatlari va mijozlarga sotish to‘g‘ricida ma’lumotlar internet orqali taqdim etiladi);

- kompyuter yordamida buxgalteriya hisobini yuritish malakasi (buxgalteriya hisobi vaqtini tejaydi va qo‘sishimcha xarajatlarni kamaytiradi);

- ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni video orqali namoyish qilish, ya’ni video-marketingni yaratish va rivojlantirish malakalari (mahsulot va xizmatlar haqida vizual ma’lumot beriladi);

- hamkorlar, mijozlar bilan telekonferentsiyalar o‘tkazish imkoniyati (agar sheriklar va mijozlar birgalikda fikrlash imkoniyati bo‘lmagan chekka hududlarda joylashgan bo‘lca, vaqt va xarajatlarni tejashning qulay va samarali usuli);

- onlayn kurslarda o‘qitish, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va shu kabilar⁷⁹.

Tadbirkorlik malakalarini asosan tajriba jarayonida, amaliyotda o‘rganishlar orqali rivojlantiriladi. Bunda asosan muvaffaqiyatli natijalarga erishgan loyihalarni o‘rganish, vaziyatlarni tahlil etib pedagog, murabbiylardan fikr va munosabatlarini bilish, tadbirkorlikka xos bo‘lgan mustaqil mashqlarni bajarish, mustaqil ishslashga e’tibor beriladi.

Tajriba natijalari ilmiy natijalar to‘plamiga asosan pedagogik yangiliklardan foydalangan holda pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda tizimli yondashuv samarali hisoblanadi.

Ta’lim yangiliklaridan samarali foydalanishda o‘qituvchilarning professionalligi, malakasi, iste’dodi va ish tajribasi muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘qituvchi qanchalik ko‘p kasbiy mahorat, malaka va tajribaga ega bo‘lca, u ta’limda innovatsiyalarni shunchalik faol qo‘llaydi va samarali natijalarga erishadi⁸⁰.

⁷⁸ Эргашева, Ф. И. (2023). Ёшлар тадбиркорлигини ривожлантиришнинг ижобий муҳитини шакллантириш. SPAIN" problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research", 14(1).

⁷⁹ Дедажанов Б.Н., Эргашева Ф.И. Роль информационных технологий в развитии предпринимательских навыков. Экономика и социум. Электронное периодическое издание. ISSN 2225-1545 №1(80)-2021.-с.543-549.

⁸⁰ Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т., Тўхлиев Н., Умаров Э., Худойберганова Д., Хожиев А. Ўзбек тилининг изохли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти. –Т.: - 6. 65.






TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Talabalarda tadbirkorlik malakalarini rivojlantirish amaliy ahamiyatga molik bo'lib, o'ziga xos bo'lgan yondashuvni talab etadi. Bu yondashuvlarni inobatga olgan holda, quyidagi rasmda talabalarda tadbirkorlik malakalarini rivojlantirishning shakllarini ifodalab o'tdik (1-rasm).



1-rasm.Tadbirkorlik malakalarini rivojlantirish shakllari.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Ta'lism-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. O'qitish vositalari o'qituvchi tomonidan materialni o'zlashtirishni rivojlantiruvchi ta'lism jarayonining vositalari sifatida qo'llaniladi, chunki ular ko'rish, eshitish va ushslash orqali idrok etishga qaratiladi. Vositalardan axborotni qidirish, tahlil qilish va foydalanish uchun ham foydalanish mumkin (masalan, kompyuter yordamida o'rgatishda). Va nihoyat, o'quv jarayonini (maxsus kompyuter dasturlari yordamida o'qitish) yo'lga qo'yish uchun vositalardan ham foydalanish mumkin.

Tajriba davomida o'qitishning faol shakllari talabalarning bilish faoliyatining namoyon bo'lishi va rivojlanishiga, ularning o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini axborot olishga yordam beradigan o'qitishda ustunlik qilishi kerak degan xulocaga keldik.

Odatda, bular mustaqil va izlanuvchan ishlarning xilma - xil turlari, o'qitish shakllari - munozaralar, debatlar, dialoglar, suhbatlar, amaliy faoliyat shakllarida amalga oshiriladi. Faol shakl va usullar o'qitish motivatsiyasini oshiradi.

Xulosalar. Bo'lajak tadbirkorlarda tadbirkorlik malakalarini rivojlantirishda, ishontirish san'ati, ishbilarmonlik xislatlari ega bo'lishi zarur. Tadbirkorning ayrim kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun birinchi galda faqat bilim, tajriba va ko'mak yetarli emas, ularning aksariyati o'z kasbining nozikligi haqidagi bilimlar paydo bo'lganda, amaliy faoliyat jarayonida egallanadi.

Tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari (mustaqillik, mas'uliyatning oshishi, tavakkalchilik, yangilik va boshqalar), ilmiy va texnologik taraqqiyot ta'siri ostida tadbirkor ish tabiatи va mazmuni o'zgarishlar dinamikasi, bozor munosabatlarini rivojlantirish, tadbirkorlik malakalarini rivojlantirishda ta'lism jarayonini tashkil noan'anaviy shakl va usullari foydalanish uchun yangi talablarni aniqlash lozimdir. Amaliyotda tadbirkorlik faoliyatidagi malakalarini rivojlantirishning maqbul shakllari, usullari va texnologiyalari ishlab chiqilib, qo'llash orqali samarasini o'rganiladi.

Talaba yoshlarda tadbirkorlik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda quyidagilarni amalgal oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: bo'lajak mutaxassislarni kasbga qiziqishini orttirish maqsadida yangi sharoitga moslashuvchan va qo'llaniladigan ta'lism texnologiyasining ommaviylashtirish; talabalarning kasbiy sohada o'z yoki jamoaviy qarorlar qabul qilish tajribasini shakllantirishga imkon berish; yangi samarali texnologiyalardan foydalanish; chet el tajribacini qo'llash imkoniyatini kengaytirish, shu jumladan oliy ta'limga xos o'qitish usullaridan foydalanishni rivojlantirish.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda tadbirkorlik sohasida amalgal oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar zamirida respublikamiz iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush farovonligini yanada yaxshilash masalasi turibdi. Bu esa talaba yoshlar zimmalariga yangidan-yangi maqsadlar va yangi vazifalarni yuklaydi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соболев В.Ю., Киселева О.В., Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского Интерактивные методы обучения как основа формирования компетенций. От замысла к практике. <https://cyberleninka.ru/article/>
2. Ergasheva, F. I. (2021). Theoretical foundations of problems and solutions for the development of entrepreneurial skills among students. *current research journal of pedagogics*, 2(12), 55-60.
3. Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т., Тўхлиев Н., Умаров Э., Худойберганова Д., Ҳожиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти. –Т.: - б. 65.
4. Рузиева Д., Усмонбоева М., Холикова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Методик қўлланма. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Конуни. 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон. <https://lex.uz/docs/5013007>
6. Эргашева Ф.И. Тарабаларда тадбиркорлик малакаларини ривожлантиришнинг педагогик механизmlари. Монография. – Наманган.: “Usmon Nosir media”, 2022. – 142 б.
7. Эргашева, Ф. И. (2023). Ёшлилар тадбиркорлигини ривожлантиришнинг ижобий муҳитини шакллантириш. SPAIN" problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research", 14(1).

